



## Çarlık Rusyası Döneminde Semerkant

Shokir G'afforov\*

ORCID: 0000-0002-6191-3204

### Öz

Bu makale, 1868'da kentin ele geçirilmesinden 1917 Ekim Devrimi dönemine kadar Çarlık Rusya'nın Semerkand'da uyguladığı iç politika, yönetim şekil ve usüllerini incelemektedir. Başlangıçta, Semerkand, 29 Haziran 1868 tarihli Zerafşan bölgesinin yönetimi hususundaki tüzüğe göre Türkistan Genel Valiliği'ne bağlı Zerafşan bölgesinin merkezi idi.1886 tarihli Türkistan Genel Valiliği İdaresi Yönetmeliği'ne göre, Zerafşan bölgesi, Semerkant bölgesine çevrildi ve şehir bu bölgenin merkezi oldu. Semerkand bölgesi 2 ilçeden oluşuyordu: Semerkand ve Kattakurgan. Bölgenin üst yöneticisi, hem sivil hem de askeri otoriteleri yöneten askeri valiydi.1886'dan 1917'ye kadar Semerkand bölgesi A.Yafimovich, N.Rostovsev, M.Federov, V.Medinskiy, A.Gasket, A.Galkin, N.Likoshin adlı valiler tarafından yönetildi. Semerkant'ı yöneten valilerin görev süresi ortalama ancak 3-4 yıl sürmüştür.

**Anahtar kelimeler:** Semerkand, Rus imparatorluğu, Sömürgecilik, İdare, Askeri Vali, Mahkeme, Zerafşan Bölgesi, Ticaret

**Gönderme Tarihi: 15/01/2019**

**Kabul Tarihi:20/03/2019**

\* *Tarix Fanlari Doktori, Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrası, Samarqand Davlat Tibbiyot Institutı, O'zbekiston, Elmek: sh.s.gaffarov1958@rambler.ru*

## Samarkand During the Russian Empire

Shokir G'afforov\*

ORCID: 0000-0002-6191-3204

### Abstract

This article analyzes the internal politics and administration of tsarist Russia in Samarkand after the seizure of the city in 1868 before the period of the October Revolution. At the beginning, Samarkand was the center of the Zarafshan district, which was approved by the "Provisional position of the administration of the Zarafshan district" dated June 29, 1868. According to the "Regulations on the Administration of the Turkestan Territory" dated 1886, the Zarafshan district was turned into the Samarkand region and the city was the center of this region. Semerkand region consisted of 2 counties - Samarkand and Kattakurgan. The supreme manager of the region was the military governor, who ruled both civil and military authorities. From 1886 to 1917, the Samarkand region was governed by eight governors - A.Yafimovich, N.Rostovtsev, M.Federov, V.Medinskiy, A.Gasket, A.Galkin, N.Likoshin, on average, their management of the region lasted for 3-4 years.

**Keywords:** Samarkand, Russian Empire, Colonialism, Administration, Military Governor, Proceedings, Zarafshan District, Trade

**Received Date:** 15/01/2019

**Accepted Date:** 20/03/2019

---

\* *Tarix Fanlari Doktori, Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedresi, Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti, O'zbekiston, Elmek: sh.s.gaffarov1958@rambler.ru*

## Самарканд в Составе Российской Империи

### Резюме

В данной статье анализируется внутренняя политика и административное управления царской России в Самарканде после захвата города в 1868 году до периода Октябрьской революции. В начале Самарканд был центром Зарафшанского округа, что было утверждено "Временным положением управления Зеравшанского округа" от 29 июня 1868 г. Согласно "Положению об управлении Туркестанского края" от 1886 года, Зеравшанский округ превращен в Самаркандскую область и город являлся центром данной области. Самаркандская область состоял из 2-х уездов - Самаркандский и Каттакурганский. Высшим управленцем области являлся военный губернатор, который управлял и гражданскими и военными властями. С 1886 по 1917 г. Самаркандской областью управлялись 8 губернаторов – А.Яфимович, Н.Ростовцев, М.Федоров, В.Мединский, А.Гапскет, А.Галкин, Н.Ликошин, в среднем их руководство областью продлились 3-4 года.

**Ключевые Слова:** Самарканд, Российская империя, колониализм, администрация, военный губернатор, Зеравшанский округ, судопроизводство, торговля.

**Получено: 15/01/2019**

**Принято: 20/03/2019**

## Rossiya Imperiyasi Davrida Samarqand

### Annotatsiya

Ushbu maqolada 1868 yilda shaharni bosib olgandan so'ng to 1917 yilgi Oktyabr inqilobigacha bo'lgan davrda chor Rossiyasining Samarqandda olib borgan ichki siyosati va boshqaruvi tahlil etiladi. Samarqand 1868 yil 29-iyunda tasdiqlangan "Zarafshon okrugining ma'muriy boshqaruvi" xususifagi Nizomga ko'ra Zarafshon okrugining markazi bo'lib hisoblangan.

1886 yilgi "Turkiston hududi ma'muriyati to'g'risidagi Nizom" ga binoan Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi va shahar bu viloyatning markazi etib belgilangan edi. Samarqand viloyati 2 ta tumandan tashkil topgan: Samarqand va Kattaqo'rg'on. Mintaqaning eng yuqori boshqaruvchisi harbiy gubernator bo'lib, u ayni paytda fuqaroviy va harbiy hokimiyatni boshqarar edi.

1886 yildan 1917 yilgacha Samarqand viloyati sakkizta gubernator - A.Yafimovich, N.Rostovsev, M.Federov, V.Medininskiy, A.Gasket, A.Galkin, N.Likoshin tomonidan boshqarilib, ularning rahbarligi o'rtacha 3-4 yil davom etgan.

**Kalit so'zlar:** Samarqand, Rossiya imperiyasi, kolonializm, administratsiya, harbiy gubernator, sudlar, Zarafshon okrugi, savdo-sotiq

## Kirish

Rossiya imperiyasi Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda - 1866 va 1868 yillarda o'tkazdi. 1866 yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida amirlikning O'ratepa, Jizzax va Yangiqo'rg'on singari hududlari Rossiya tarkibiga kiritildi.

Rossiya hukumati yangidan bosib olingan yerlarni boshqarish va bu harakatni yana davom ettirishni muvofiqlashtirish uchun 1867 yilning 11 iyulida Turkiston general - gubernatorligini ta'sis etdi va uning rahbarligiga podsho Aleksandr II bilan aloqada bo'lgan general K.P.Fon Kaufman tayinlandi. 1868 yilda Fon Kaufman Buxoro amirligiga qarshi urushlarga bevosita o'zi boshchilik qildi.

Manbalarda aytilishicha, Samarqand bekligining markazi Samarqand uchun Buxoro qo'shinlari va rus askarlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1868 yil 1 mayda bo'lib o'tgan. Harbiy axborotlarda Samarqand Cho'ponota tepaligidagi jangdan so'ng, 2 mayda jangsiz egallanganligi aytiladi.<sup>1</sup> Samarqand viloyatining to'liq chor imperiyasi tarkibiga kiritilishini esa Zirabuloq jangi hal qilgan. Keyinchalik ruslar bu jangdagi g'alabaning 25 yilligini ham zo'r tantana bilan nishonlaganlar.<sup>2</sup>

1868 yil 23 iyunda Buxoro amiri Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bilan sulh tuzib, Rossiyaning vassaliga aylanadi. Bu sulhga ko'ra, Buxoro amirligi o'z mustaqilligini yo'qotibgina qolmay, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismidagi yerlardan ham ajraldi.<sup>3</sup>

Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan xududlarda ma'muriy hududiy birlik, ya'ni markazi Samarqand bo'lgan Zarafshon okrugi tuzildi, uning boshlig'i etib Aleksandr Konstantinovich Abramov tayinlandi.<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Traktat Axmada Donisha. Istoriya mangitskoy dinastii. Dushanbe, 1967, 38-40.; Rasskazı o vzyatii Samarkanda ( so slov uchastnikov dela) // Turkestanskiy literaturniy sbornik. -SPb, 1900., 131-132; Abaza K.K. Zavoevanie Turkestana. -SPb., 1902, 168; Terentyev M.A.Istoriya zavoevaniya Sredney Azii. -SPb., 1906. T.1. S.423; O'zR MDA fond-715, ro'yxat-1, ish-36, varaklar, 307-308; Logofet D.N. Buxarskoe xanstvo pod russkim protektoratom. T.1. -SPb. 29; Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: Sharq,1998, 265-268 betlar. O'zbekistonning yangi tarixi.1-qism. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. - T., "Sharq», 2000. -107 b.

<sup>2</sup> O'zR MDA fond-I 18, ro'yxat-1, yig'ma jild-281, varaqlar, 1, 2.

<sup>3</sup> O'zR MDA fond-I 715, ro'yxat-1, 36-ish, varaqlar, 342, 343.

<sup>4</sup> Abaza K.K.Zavoevaniye Turkestana. SPb. 1902, 16; Massalskiy V.I. Turkestanskiy kray. -SPb. 1913, 309.

Turkiston general-gubernatorligi tomonidan 1868-yilda tashkil etilgan Zarafshon okrugi dastlab Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat bo'ldi. 1871-yilda ularga yangi ma'muriy-hududiy birlik-tog'li tumanlar qo'shildi. U Zarafshon daryosining yuqorisida joylashgan mayda beklıklardan tuzildi.

### **I- Samarqanddagi Kolonial Boshqaruv Tizimi**

Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shu omil Turkiston general-gubernatorining 1868-yil 29-iyunda tasdiqlangan «Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari»da ham o'z aksini topdi<sup>5</sup>. Hujjatning asosiy majmui K.P.Kaufmanning bevosita raxbarligida ishlab chiqildi, unda ma'muriy tizim «harbiy-xalq boshqaruvi» deb ataldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Zarafshon okrugida ma'muriy - hududiy boshqaruv tizimi ikkiga: Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'lib boshqarildi. Lekin har ikkala bo'lim ham Zarafshon okrugi general -gubernatorligiga bo'ysundirildi.

M.Virskiyning 1872-yil uchun bergan ma'lumotlariga ko'ra, Zarafshon okrugining ma'muriy - hududiy jihatdan bo'linib boshqarilishi quyidagicha bo'lgan:

<b>Samarqand bo'limi</b>	<b>Kattaqo'rg'on bo'limi</b>	<b>Tog'li tumanlar</b>
Tuman, shahar, uchastka, qishloq va joy nomlari		
1. Shovdor tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Samarqand shahri (80 ta kvartal);</li> <li>▪ 20 ta daha va 114 ta qishloq;</li> </ul> 2. Chelak tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 7 ta daha va 27 ta qishloq;</li> </ul> 3. Sheroz tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 24 daha va 88 ta qishloq;</li> </ul> 4. So'gud tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 24 ta daha va 92 ta qishloq;</li> </ul> 5. Ofarinkent tumani <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 20 ta daha;</li> <li>▪ 14 ta kvartal va 115 ta qishloq;</li> </ul> 6. Yangi qo'rg'on tumani <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 14 daha va 63 ta qishloq;</li> </ul> 7. Anhor tumani <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 9 ta daha va 76 ta qishloq;</li> </ul> 8. O'smat-qartol tumani <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 7 ta daha va 36 ta qishloq;</li> </ul> 9. To'rtko'l uchastkasi <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 5 ta daha va 32 ta qishloq;</li> </ul> 10. Xoja-Shukur uchastkasi. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 4 ta daha va 10 qishloq;</li> </ul> Samarqand bo'limi jami 134 ta daha va 653 ta qishloqdan iborat	1. Kattaqo'rg'on tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Kattaqo'rg'on shahri</li> <li>▪ 13 ta uchastka</li> <li>▪ 78 ta qishloq</li> </ul> 2. Payshanba tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 7 ta uchastka</li> <li>▪ 157 ta qishloq</li> </ul> 3. Metan tumani <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 2 ta uchastka</li> <li>▪ 51 ta qishloq</li> </ul> Kattaqo'rg'on bo'limi jami 22 ta uchastka, 286 ta qishloqdan iborat	1. Panjikent tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Panjikent shahri. (14 ta kvartal)</li> <li>▪ 1 ta daha.</li> </ul> 2. 3 ta uchastka; <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 46 ta qishloq;</li> <li>▪ 3 ta uchastka;</li> <li>▪ 23 ta qishloq;</li> </ul> 3. Urgut tumani. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ Urgut shahri (13 ta kvartal);</li> <li>▪ 4 ta uchastka;</li> <li>▪ 103 ta qishloq;</li> </ul> 4. 2 ta uchastka. <ul style="list-style-type: none"> <li>▪ 51 ta qishloq;</li> </ul> Tog'li tumanlar jami 12 ta uchastka va 233 ta qishloqdan iborat. <sup>7</sup>

*1-jadval<sup>6</sup>*

<sup>5</sup> O'z R MDA fond- I5, ro'yxat-1, ish-1, varaq 1.

<sup>7</sup> Materiali dlyastatistiki Turkestanskogo kraya, Vip 6.- SPb., 1876, 11-55.

<sup>6</sup> Materiali dlya statistiki Turkestanskogo kraya. Vip IV.-SPb.,1876, 11-55.

1886 yilgi «Turkiston o'lkasini boshqarish Nizomi» ga muvofiq, Turkiston o'lkasining ma'muriy-hududiy bo'linishi o'zgartirildi. Bunda mavjud birliklarni unifikatsiyalash prinsipiga izchil rioya qilina boshlandi. Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi. Uning tarkibiga Sirdaryo viloyatining Xo'jand va Jizzax uyezdlari o'tkazildi va keyinchalik Samarqand viloyati Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Xo'jand uyezdlaridan tashkil topdi.<sup>8</sup>

Quyida Samarqand viloyati va uning tarkibidagi uyezd (tuman), shahar va uchastkalar (jabha) nomi keltirilayapti:

Uyezdlar va ulardagi shaharlar.	Uchastkalar nomi.
1 .Samarqand uyezdi. - Samarqand shahri. - Panjakent shahri.	Dahbet Urgut Panjakent
2.Jizzax uyezdi. - Jizzax shahri.	Bog'don Yangiqo'rg'on Zomin
3. Xo'jand uyezdi. -Xo'jand shahri. -O'ratepa shahri.	Isfaney Savat O'ratepa
4.Kattaqo'rg'on uyezdi. -Kattaqo'rg'on shahri.	Payshanba, Chelak

*2-jadval.*

Jadvalda ko'rsatilgan uchastkalar o'z navbatida volostlarga bo'lingan. 1897-yilda M.Virskiy bergan ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand uyezdida 32 ta, Xo'jand uyezdida 11 ta, Kattaqo'rg'on uyezdida 31 ta, Jizzax uyezdida 17 ta volostlar mavjud edi. Viloyat bo'yicha 390 ta qishloq va 48 ta ovul jamoalari, aholi punktlari 2267 ta qishloq va 158 ta ovuldan iborat bo'lgan.<sup>9</sup> Shunday qilib, 1886-yilgi Nizomdan so'ng, o'lka idorasi markaziy, viloyat, tuman (uezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi. Samarqand shahri viloyat boshqaruvi qarorgohi hisoblangan.

Siyosiy boshqaruvda olib borilgan o'zgarishlar mahalliy boshqaruvdagi tashkilot va kadrlarning shakllanishiga olib keldi. Jumladan, dastlab Zarafshon okrugida

<sup>8</sup> O'zR MDA fond-I18, ro'yxat-1, varaq, 1.

<sup>9</sup> Statisticheskie svedeniya po gorodam i uezdam Samarkandskoy oblasti za 1897 g. M.Virskogo. – Samarkand, Tip-ya: K.M.Fedorova. 1899, 4-10.

Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlari tashkil etilgan edi. Shu munosabat bilan chor ma'muriyati tomonidan okrug boshqaruv tizimida yangi lavozimlar tashkil etildi. Xususan, Turkiston general-gubernatorining 1869 yil 24 oktyabrdagi tasdig'i bilan Zarafshon okrugi boshqaruvi asosan quyidagi lavozimlardan iborat bo'ldi:

Zarafshon okrugi boshlig'i, Zarafshon okrugi Devonxonasi boshlig'i, Devonxona ish yurituvchisi; Bo'limlari bo'yicha: Samarqand bo'limi va Kattaqo'rg'on bo'limi boshlig'i, bo'lim yordamchilari (biri ruslardan, yana biri maxalliy aholi vakilidan) tarjimonlar va boshqa lavozimlar shular jumlasiga kirdi.<sup>10</sup>

«Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari»ga ko'ra, okrug boshlig'i izmida harbiy, ma'muriy, polisiya va sudlov hokimiyati bo'lgan. Shu bilan bir qatorda, Zarafshon okrugi ma'muriyatiga diplomatik vazifalar ham berilgandi. Ya'ni, Zarafshon okrugi boshlig'ining vakolatiga qo'shni Buxoro amirligining beklklari bilan «chegara munosabatlarini olib borish» ham kirdi.<sup>11</sup>

Okrugni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o'zi tayinlaydigan kishilar boshqargan. Zarafshon okrugi markazi hisoblangan Samarqand shahrida ham shahar boshqaruvi tarkibi quyidagi bo'limlardan iborat bo'lgan:

1. Okrugda umumxalq ishlari bo'yicha mudir va shahar arxitektori.
2. Okrugda sug'orish ishlari bo'yicha mudir.
3. Okrugdagi aksiz\* soliqlari bo'yicha mudir.
4. Shahar hokimi.<sup>12</sup>

Aytish joiz, harbiylashtirilgan byurokratiya okrugdagi (keyinchalik viloyatdagi) boshqaruv tizimining barcha asosiy nuqtalarini egallagan edi. Faqat volost va qishloq darajasidagi boshqaruvni tashkil etish go'yo mahalliy jamiyat ixtiyoriga berilgandi.

1886 yilgi «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»dan so'ng Zarafshon okrugi Samarqand viloyati deb o'zgartirildi va viloyat, tuman, (uyezd), jabha (uchastka), qishloq va shahar boshqaruvi shaklida tashkil topdi.

Viloyat boshqaruvi: harbiy gubernator va viloyat boshqarmasidan iborat bo'ldi. Samarqand viloyat boshqarmasi 3 bo'limdan iborat bo'lgan:

- 1) Farmoyish beradigan bo'lim;
- 2) Xo'jalik bo'limi;

---

<sup>10</sup> O'z R MDA fond I5, ro'yxat-1, varaklar, 37, 38.

<sup>11</sup> Abduraximova N., Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. -T., 2002, 50 b.

\* Aktsiz - keng iste'mol mollaridan olinadigan soliq

<sup>12</sup> O'z R MDA fond-I5, ro'yxat-1, yig'ma jild-213, varaqlar, 8,9.



3) Ssuda bo'limi<sup>13</sup>;

Samarqand viloyat boshqarmasi harbiy gubernatorga bo'ysungan. Viloyatni rus armiyasi generallaridan shaxsan podshoning o'zi tayinlaydigan harbiy gubernatorlar boshqargan. Ular harbiy va fuqaro hokimiyatini o'z qo'lida tutgan. Harbiy sohada viloyatdagi qo'shinlar (diviziya yoki korpus) qo'mondoni, fuqaro ishlarida esa gubernator huquqiga ega bo'lgan barcha ma'muriy, polisiya va sud hokimiyati ham ularning izmida bo'lgan.

Ya'ni, harbiy gubernatorlarga mohiyatan diktatorlik vakolatlari berilgan edi. Bular: volost boshqaruvchilarini lavozimga tasdiqlash yoki saylovlar bekor qilingan taqdirda, ularni o'z ixtiyoriga ko'ra tayinlash, xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda, yangi saylovlarni tayinlash, o'z ixtiyoriga ko'ra, uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezd boshlig'i bundan mustasno bo'lib, ular to'g'risida faqat general-gubernator nomiga taqdimnoma yozilardi); uyezd boshliqlari tub aholi vakillariga belgilangan jarima to'lash yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqqan.<sup>14</sup>

Samarqand viloyatini 1886 yildan 1917 yilga qadar 8 ta gubernator boshqargan bo'lib, o'rta hisobda ularning har biriga 3-4 yil muddatdan to'g'ri kelgan. Arxiv hujjatlari bu gubernatorlar - A.Yafimovich, N.Rostovsev, M.Federov, V.Medinskiy, A.Gasket, A.Galkin, N.Likoshin kabilarning faoliyatiga oid keng ma'lumotlar beradi. Ularning barchasi ma'lumotli, zodagon dvoryanlar bo'lgan. Viloyat harbiy gubernatorlarining maoshi 15 ming rublgacha bo'lib, bu markaziy Rossiyadagi gubernatorlarnikidan 2 barobar ko'p edi.<sup>15</sup>

Samarqand viloyat boshqarmasi quyidagi shtatlardan iborat bo'ldi:<sup>16</sup>

1) Viloyat boshqarmasi raisi (shuningdek, harbiy gubernator yordamchisi); 2) Maslahatchilar (bo'lim boshliqlari); 3) Ish yurituvchilar; 4) Ish yurituvchilarning yordamchilari; 5) Buxgalter; 6) Tarjimon.

Viloyat boshqarmasi raisi shuningdek, harbiy gubernator yordamchisi hisoblangan. U harbiy gubernator tobi qochgan, yo'q bo'lgan yoki bo'shatilgan hollarda

---

<sup>13</sup> O'zR MDA fond-I18, ro'yxat-1, varaqlar, 1,2.

<sup>14</sup> Polojenie ob upravlenie Turkestanskogo kraja. sos-l. I.YA.Abramov. -T., 1916, 20-25.

<sup>15</sup> G'afforov Sh.S. Chorizm davrida Samarkand viloyatida mustamlaka siyosiy-ma'muriy tizimining yuzaga kelishi. Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro-ilmiiy simpozium materiallari. - Toshkent-Samarqand: Fan, 2007, 381 bet.

<sup>16</sup> O'z R MDA.F-I18, ro'yxat-1, ish 646, varaq, 5.

uning xizmat vazifasini bajargan. Gubernator yordamchisi general-gubernator taqdimnomasi orqali ishga tayinlangan.

Samarqand viloyat boshqarmasi vazifasiga quyidagilar kirgan:

-viloyatni ma'muriy bo'lish va tashkil etish;

-hukumat qonun va farmoyishlarini e'lon qilish;

-amaldorlarni ishga tayinlash, ishdan chetlatish va mehnat ta'tili berish, mukofotlarga takdim etish, nafaqa va maosh belgilash, mansabdor shaxslarni sudga topshirish;

-chet elliklarni fuqarolikka qabul qilish;

-aholi o'rtasida yerni taqsimlash;

-viloyatda obrok\* bo'limlarini boshqarish;

- viloyatda yarmarka va bozorlarni ta'sis etish;

-viloyatning statistik ma'lumotlarini to'plash-mahalliy aholidan soliq va to'lovlarni olish;

- fuqarolik va jinoyat ishlarini sudda ko'rilishga tayyorlash-maxfiy va krepostnoylik hujjatlarini tuzish;

-viloyatdagi barcha savdo va pudratlarni yurgizish, shartnomalar tuzish.

Shuningdek, viloyatda mavjud bo'lmagan maxsus muassasalarni boshqarish ham viloyat boshqarmasiga yuklangan edi. Bular gubernator devonxonasi, guberniya vrachlik mahkamasi, davlat mulki palatasi, okrug sudlari va hokazo. Shuningdek viloyat tibbiy nazorati viloyat vrachiga yuklangan, u guberniya vrachligi nazoratchisi huquqlaridan foydalangan va bevosita harbiy gubernatorga bo'sungan.

Viloyat boshqarmasi qoshida irrigasiya ishlarini boshqaruvchi amaldor bo'lib, asosiy sug'orish kanallari, sug'orish ariqlariga qo'shimcha bo'lgan va ulardan ajralib chiquvchi sug'oruvchi kanallar, suv o'tkazgichlarini nazorat qilish, yangi irrigasiya inshootlarini, mavjud inshootlarni yaxshi tutish, ta'mirlash va qayta qurishda texnik ko'rsatmalar bergan.

Turkiston o'lkasida yerlarni tashkil etish zaruriyati bilan bog'liq ravishda Samarqand viloyati boshqarmasi qoshida chegara belgilash bo'limi ham tashkil etilgan.<sup>17</sup>

Xo'jalik, moliyaviy, ssuda masalalari umumiy boshqaruv ishtirokidagi majlislarda muhokama qilingan. Mazkur masalalarga mas'ul maslahatchi va amaldorlar general-gubernator tomonidan ishga tayinlangan va ishdan olingan. Yuqoridagilarning barchasi viloyat boshqaruvidagi tashkilot va tarkiblari edi.

---

\* Obrok- chor imperiyasi davrida pul tarzida olingan yillik yig'im.

<sup>17</sup> O'zR MDA Fond-I18, ro'yxat-1, ish 14516 a, varaqlar, 1-16.

Viloyatlar o'z navbatida tumanlarga (uyezdlarga) bo'linib, ularni tumanboshilar idora qilgan. Xar bir tuman o'z tarkibidagi shahar va qishloqlari bilan tuman hokimi - tumanboshiga buysungan. Tumanboshi shuningdek, uyezdagi harbiy qo'shinlarni ham boshqargan. Uyezd boshliqlari viloyat harbiy gubernatorlarining taqdimnomasiga ko'ra, general-gubernator tomonidan tayinlanib, ishdan olingan. Uyezd boshliqlari rus armiyasi katta zobitlaridan, asosan, mayor, rotmistrdan to polkovnik unvonigacha bo'lganlardan tayinlanilgan. Uyezd boshlig'i bir vaqtning o'zida ispravnik, polismeystr, zemstvo boshlig'i, shahar hokimi, yer-soliq xizmati raisi ham edi.<sup>18</sup>

Uyezd boshqaruvining shaxsiy tarkibiga uyezd boshlig'idan tashqari uning yordamchilari va devonxona xodimlari ham kirgan. Uyezd boshlig'i qoshida devonxona bo'lib, uni ma'muriy ishlar bo'yicha yordamchi boshqargan.

Uyezd ma'muriyati zimmasiga g'azna-obrok ishlarini nazorat qilish, soliqlarni hisoblash, ichki tartibni kuzatish, yer-suv tufayli kelib chiqqan nizolarni hal qilish, uyezdni, volost va qishloq ma'muriyatlari faoliyatini nazorat qilish borasidagi ko'p sonli ishlarni boshqarish yuklangan. Ayniqsa, bu borada uyezd boshliqlariga volost boshqaruvchilari va qishloq oqsoqollariga boshqaruv borasidagi majburiyatlari, o'z huquq va majburiyatlarini anglab, faoliyat olib borish yuzasidan qattiq talab qo'yilgan.<sup>19</sup>

Jumladan, uyezdlarda yer - soliq mahkamasi tuzilgan bo'lib, bu mahkama uyezd boshlig'i vakilligidan iborat bo'lib, soliq inspektori, uyezd davlat mulki boshlig'i, uyezd boshlig'i yordamchisi va uyezd yer o'lchovi nazoratchilaridan tashkil topgan. Yer soliq mahkamasi vazifasiga quyidagi yerlar to'g'risida ma'lumot to'plash kirgan:

1. O'troq qishloq aholisiga birkutilgan yerlar;
2. Vaqf vakolatxonasiga karashli yerlar;
3. Xususiy yer egalari;
4. Rus qishloqlari, shuningdek, iste'fodagi va zahiradagi quyi amaldorlarga ajratilgan yerlar;<sup>20</sup>

Shaharlar boshqaruvi viloyat boshqaruvi nazoratida bo'lib, «1867 yil Nizomi»ga ko'ra, jamoat - xo'jalik ishlari shaharda saylanuvchi mahalliy ma'muriyat tomonidan amalga oshirilgan. Shaharlar qismlarga bo'linib, ularni oqsoqollar boshqargan. Ular mahallalardan tayinlangan saylovchilar qurultoyi tomonidan saylangan. Mahalliy ma'muriyat (oqsoqol, ellikboshi) 3 yil muddatga saylangan. Shahar oqsoqollari soliq yig'ish va majburiyatlarni taqsimlash bilan shug'ullangan. Ular harbiy gubernatorlar tomonidan tayinlanuvchi va shahar doirasida polisiya xizmatini boshqaruvchi katta oqsoqolga bo'ysungan. Katta oqsoqolga barcha

<sup>18</sup> Projekt vsepoddanneyshego otcheta general-ad'yutanta K.P.Kaufmana po grajdanskomu upravleniyu i ustroystvu v oblasti Turkestanskogo general-gubernatorstva. 7 noyabrya, 1867, 25 marta 1881 gg. Spb. 1885, 43.

<sup>19</sup> O'z R MDA fond I-18, ro'yxat-1, yig'ma jild-1121, varaqlar 2, 3 orqasi.

<sup>20</sup> Polojenie ob upravlenie Turkestanskogo kraya. sos-l. I.YA.Abramov. T.1916, 27-28.

quyi polisiya amaldorlari-mirshablar, miroblar va qozilar bo'ysungan. Ularning barchasiga shahar aholisidan yig'iluvchi mablag' hisobidan maosh to'langan.<sup>21</sup>

Uyezdlar uchastka (jabha)larga bo'linib idora qilingan. Samarqand viloyati 11 ta uchastkaga bo'lingan. Uchastkalarni kichik unvondagi harbiy zobitlar boshqarishgan. Ular uchastka pristavlari nomi bilan yuritilib, viloyat boshqarmasi qarori bilan general-gubernator tomonidan tasdiqlangan.

Uchastka pristavlari «harbiy - xalq boshqaruvi»dagi harbiy bo'g'inning eng quyisi bo'lib, ularga «mahalliy o'z - o'zini boshqaruv», ya'ni «xalq boshqaruvi» amaldorlari - volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari, yuzboshi hamda ellikboshilar bo'ysungan. Ular soliq yig'ish, majburiyatlar, uyezd boshliqlari chiqargan qarorlar va ko'rsatmalarning joylarda bajarilishini ham uchastkalardagi aholini nazorat qilish bilan shug'ullangan.<sup>22</sup>

Uyezd boshlig'i, ularning yordamchilari va uchastka pristavlari xududda qonunni buzgan, ma'muriy tartibsizlik qilgan mahalliy aholiga jarima solish va jazolash huquqiga ega edi. Uyezd boshliqlari qo'l ostidagi istalgan kishini 7 kundan ortiq hibsdan ushlamasligi va 15 rubldan ziyod pul undirmasligi va shuningdek, uyezd boshliqlari yordamchilari va uchastka pristavlari ham istalgan kishini 5 kundan ziyod hibsdan ushlamasligi va 5 rubldan ziyod pul undirmasligi lozim edi. Undirilgan pullar asosiy kapital sifatida Samarqandda qamoq joylarini tartibga solish vositalarini kuchaytirishga sarflangan.<sup>23</sup>

Aytish joizki, mustamlaka davrida boshqaruv tizimidagi ma'murlarga davlat g'aznasidan maosh belgilangan. Mansabdor shaxslar o'z navbatida egallagan ijtimoiy mavqeiga qarab razryadlarga bo'lingan va shunga muvofiq maosh belgilangan. Masalan, Zarafshon okrugi boshlig'i maoshi - 5000 rubl miqdorida belgilangan. Uning favqulodda sarf - xarajatlariga - 6000 rubl ajratilgan. Agar okrug boshlig'i biron-bir mansabni egallagan bo'lsa, unda u oladigan maosh miqdoriga qo'shimcha oklad bilan birgalikda 5000 rublga teng miqdorda maosh tayinlangan.<sup>24</sup>

Quyidagi jadvalda, uyezd boshqaruvidagi amaldorlar shtatiga e'tiborni qaratsak:

Lavozimlar	Razryadlar va maoshlari (rubl)			
	I	II	III	IV
Uyezd boshlig'i	4000	3700	3450	3200
Uyezd boshlig'i yordamchisi	3300	3000	2700	2400
Uchastka pristavi	2400	2200	2000	1800
Uning yordamchisi	1800	1600	1400	1200
Uyezd polisiyasi xizmatidagi kichik unvondagi kishi	1200	1040	880	720
Ot qorovuli	720	680	640	600

<sup>21</sup> O'z R MDA. fond - I18, ro'yxat-1, ish-453, varaqlar, 1,4,6.

<sup>22</sup> O'z R MDA. fond-I1, ro'yxat-27, ish-659, varaklar, 22, 49.

<sup>23</sup> Polojenie ob upravlenie Turkestanskogo kraya. sos-l. I.YA.Abramov. T.1916, 34.

<sup>24</sup> O'z R MDA. fond-I 5, ro'yxat-1, yig'ma jild-1, varaq, 38.

Piyoda soqchi	600	560	520	480
---------------	-----	-----	-----	-----

3 -jadval.<sup>25</sup>

Bunda turli ryazryaddagi amaldorlarga har xil miqdorda maosh belgilangan bo'lib, bu ularning harbiy unvoni darajasi, mavqei, obro'yini bildirgan. Lekin bu quyi boshqaruv tizimidagi mahalliy vakillarga mutlpqo tegishli emasdi. Ya'ni, ularga byujetdan mablag' ajratilmasdi. Ularga (oqsoqollar, raislar, zakotchilar, qozilar, biylar) haq to'lash turli darajadagi yig'inlarning qarori bilan belgilanar va to'la-to'kis aholining zimmasiga yuklanardi.

## 2- Mahalliy o'z-o'zini boshqaruv

Chor hukumatining boshqaruv borasidagi siyosati haqidagi fikrimizni davom ettirib, «mahalliy o'z-o'zini boshqaruv» to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Chor hukumati siyosiy nuqtai nazardan kelib chiqib, qishloq, uning boshqaruvini mahalliy va rus boshqaruvini sifatida ajratib, uni asta-sekin umumimperiya turidagi ruscha idoraga o'tkazishni ko'zladi. Shu maqsadda O'rta Osiyoga mutlaq yot bo'lgan geografik islohotni boshlab, volost, qishloq yig'ini kabilarni joriy qildi. 1867 yildagi «Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarni boshqarish haqidagi Vaqtli Nizom loyihasi» deb atalgan qonunlar majmuasiga ko'ra, ko'chmanchi aholiga ikki bosqichli (volost va ovullar) o'troq aholiga esa bir bosqichli (oqsoqolliklar) boshqaruv tizimi joriy qilindi.<sup>26</sup>

Ko'chmanchi aholi har bir uyezdga volostlarga, volostlar esa ovullarga bo'lingan. Volost asosining 1 mingdan 2 mingtagacha hovli yoki o'tovdan, qishloq yoki ovul jamoalari 200 ta hovli yoki o'tovdan iborat bo'lishi belgilab qo'yildi.<sup>27</sup> Ma'muriy va polisiya hokimiyati volost boshqaruvchilari va ovul oqsoqollari qo'lida bo'lib, ular uch yil muddatga saylangan. Volost boshqaruvchisi va aminlar harbiy gubernator tomonidan tayinlangan. Faqatgina ba'zi hollarda uyezd boshqaruvchisi volost boshqaruvchisini harbiy gubernatorga taqdimnoma yetkazish shundan orqaligina chetlatilishi mumkin edi. Shuningdek qishloq oqsoqoli va uning yordamchisi ham, uyezd boshlig'i tomonidan ishdan bo'shatilgan.<sup>28</sup>

Viloyatlarning o'troq aholisi uchun ma'muriy va polisiya xokimiyatini qishloq oqsoqoli boshqarib, u aholi tomonidan uch yilga saylanar, ularning nomzodlari ham rus ma'muriyati tomonidan tasdiqlanar edi. Umuman, volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari va ularning yordamchilari halq saylovi bilan 3 yil muddatga saylangan.<sup>29</sup>

<sup>25</sup> Palen K.K.. Uezdnoe upravlenie. SPB 1910, 167.

<sup>26</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kism. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. -T.: Sharq, 2000, 203, 6.

<sup>27</sup> Polojenie ob upravleniya Turkestanskogo kraya. -T., 1903, 63.

<sup>28</sup> O'z R MDA fond-I5, ro'yxat-1, yig'ma jild-208, varaqlar, 3.

<sup>29</sup> O'sha joyda, varak, 3.

Saylovchilar yig'inida har o'n xonadon yoki o'n o'tovdan vakil ishtirok etib, ular o'nboshi sifatida qishloq oqsoqoli yoki ovul starshinasi haMarkaziy Davlat Arxivi,, ularning muovinlarini saylashgan. Volost boshqaruvchisi - mingboshini esa har 50 xonadon yoki 50 o'tovdan tayinlangan vakillar - ellikboshilar yig'ini saylagan. Bu tartibga 1886 yilda bir necha o'zgarishlar kiritilgan. 1886 yilda kuchga kirgan yangi qonunlar majmuasi - «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» o'troq aholining bir bosqichli boshqaruvini ikki bosqichliga aylantirib, oqsoqolliklarni volostlarga birlashtirdi. Ovul jamoalari va oqsoqolliklar vakillari yig'ini umumsaylovchilar yig'iniga har 50 xonadondan vakillar saylash bilan o'zgartirilgan.<sup>30</sup>

Volostdagi boshqaruv saylanganlarning volost qurultoyidan iborat edi. Volost boshqaruvchisi saylovlari ikki darajali bo'lib, dastlab qishloq yig'ini to'planib, unda 50 uy nomidan bitta vakil saylangan. So'ng qishloq yig'inlaridan saylangan vakillar rus ma'murlari ishtirokida o'tuvchi volost qurultoyiga to'planardilar.

Rus ma'murlaridan uyezd boshlig'i yoki uning yordamchisi ishtirok etib, tartibni nazorat qilganlar. Saylov yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilib, ovozlar qutiga tashlangan, soqqalar vositasida aniqlangan. Ellikboshilar birma-bir tumanboshi oldida turgan usti yopiq kutiga yaqinlashib, sekingina o'zlari istagan nomzodning ismi shariflarini aytishgan va taqsimchadagi soqqani qutiga tashlashgan. Bu marosim barchaning ko'z oldida ochiq bo'lgan va uning yakunida kim ko'p ovoz olgani e'lon qilingan.<sup>31</sup> Ovoz berish natijalari qog'ozda barcha ellikboshilarning tamg'asi va imzosi bilan muhrlanib uyezd boshlig'i yoki uning yordamchisi tomonidan tasdiqlangan. Saylov arafasida uyezd boshlig'i yoki uning yordamchisi ro'yxat bo'yicha ellikboshilarni sonini aniqlagan. Qurultoyda saylangan vakillar soni 2/3 qismini tashkil etmasa, volost qurultoyi bekor qilingan.<sup>32</sup>

Volost qurultoyiga volost boshqaruvchisi, halq sudyalari va ularga nomzodlarni saylash; quyi ma'muriyatlarning mansabdor shaxslariga maosh belgilash, ko'priklar, yo'llar, xo'jalik qurilmalarining holatini nazorat qilish; suvdan foydalanish va suv ta'minoti ishlarini boshqarish huquqi berilgan edi.

Volost qurultoyi ikki nomzodni saylagan, biri volost boshqaruvchisi, ikkinchisi unga nomzod bo'lgan. Harbiy gubernator qurultoydagi saylov natijasini ko'rib chiqib, nomzodlarni tasdiqlagan. U tasdiqlamagan taqdirda, qayta chaqirilgan yoki lavozimga to'g'ridan - to'g'ri gubernator tanlagan shaxs qo'shilgan. Volost qurultoyi volost boshqaruvchisiga maosh belgilagan. Uning miqdori odatda 300 so'mdan 500 so'mgacha bo'lgan.

Qishloq oqsoqollari, nomzodlari va oqsoqol yordamchilari qishloq jamoasi tomonidan bevosita volost boshqaruvchisi ishtirokida saylangan.

---

<sup>30</sup> Sel'skoe upravleniya: russkoe i tuzemnoe. Otchet po revizii graf.K.K. Palenom.-SPb, 1910, 9.

<sup>31</sup> O'z R MDA fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild-1800, varaklar 2 va uning orqasi.

<sup>32</sup> O'z R MDA fond-I18, yig'ma jild-25-28, varaklar 9,10.

Ularni lavozimga uyezd boshlig'i tasdiqlagan. Qishloq jamoasi yig'ini ularga yiliga 200 so'mdan maosh belgilagan. Yig'in ariklarga qarovchi miroblarni ham saylab, ularga maosh tayinlagan. Katta ariqlarni to'gridan-to'g'ri harbiy gubernator tomonidan tayinlanadigan ariq oqsoqollari boshqarib, ular irrigasiya mudiriga itoat qilishgan.

Volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari va ularning yordamchilari 25 yoshdan kichik bo'lmasligi, sudlangan, xizmatdan bo'shagan, lavozimidan chetlatilgan kishi bo'lmasligi shart bo'lgan.<sup>33</sup>

Rus ma'muriyatining aholiga «o'zini-o'zi boshqarish» va «saylov huquqini berishi» g'irt siyosiy lo'ttibozlikdan iborat bo'lib, aslida ishning tizgini ularning qo'lida qolgan. Ya'ni volost va qishloq darajasidagi boshqaruvni tashkil etish go'yo mahalliy jamiyat ixtiyoriga berish yo'li bilan ularni ovuntirishni ko'zlagan va lekin boshqaruv nazorati chor hukumatining diqqat-e'tiborida bo'lgan.

Chor hukumati kadrlar siyosatiga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashib ish tutgan. Xususan, agar volost boshqaruvchisi shaxsiy biron-bir sababga ko'ra rus ma'muriyatini qanoatlantirmasa, viloyat harbiy gubernatori yangi saylov tayinlashi yoki boshqaruvni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa odam bilan almashtirishi mumkin edi. Shuningdek, chor hukumati uchun mahalliy ma'muriyat, eng avvalo, soliq va yig'implarning muvaffaqiyatli va o'z vaqtida to'planishiga katta yordam bergan. Shuning uchun, K.P.Kaufman bu yangi tashkilotlarning chorizm oldidagi muhim rolini qayd etib, shunday deydi: «Mahalliy halq boshqaruvisiz - na yig'implarning kelib tushishiga, na yangi ochilgan muassasalarning to'g'ri faoliyat yuritishiga umid qilib bo'lardi».<sup>34</sup>

### **3- Politsiya, Sud va Harbiy Rejim**

Turkistonni mustamlakacha boshqarish tizimida polisiya muhim rol o'ynadi. U muntazam armiya singari, samoderjaviya quroli, uning Samarqanddagi manfaatlarining tayanchi va himoyachisi hisoblanardi. Ana shu polisiya tizimiga suyangan podsho hukumati Turkiston o'lkasi idorasini eng quyi bo'g'inidan oliy bo'g'inigacha o'z qo'lida tutgan. Viloyat harbiy gubernatori, tuman boshilar, uchastka pristavlari ham, polisiya pristavlari ham polisiya generallari va zobitlari vakolatlariga ega bo'lgan.

Shaharlarda polismeystr lavozimi joriy etilib, ularning huquqlari uyezd boshliqlari huquqlari bilan tenglashtirildi. Jumladan, Samarqand shahrida polisiya nazorati, shaharning rus va mahalliy qismlarida alohida polisiya boshqaruvi nazorati o'rnatildi. Polisiya boshqaruvi har bir qismlar uchun polismeystr, polisiya pristavlari va boshqa shtatlar bo'yicha amaldorlarga

---

<sup>33</sup> Polojenie ob upravleniye Turkestanskogo kraya. Sos-l. I.F.Abramov. T.1916, 56.

<sup>34</sup> Kaufman K.P. Proekt vsepoddanneyshego otcheta .... Spb, 1885, 165.

bo'lingan. Shahardagi polisiya nazoratchisi mansabini rus millatiga mansab shaxs bajargan. Samarqand shahri polismeystri mahalliy aholini boshqaruv tartibiga mos holda jazoga tortishda uyezd boshlig'i bilan bir qatorda turgan<sup>35</sup>.

Kichkina qilmishi va gapga kirmaganligi uchun ham tub aholi vakillari jarima yoki bir oylik hibsga tortilgan. Ayniqsa, mahalliy aholi yashaydigan qismlarda mirshablik holati kuchaytirilgan edi. Masalan, shaharning rus qismi uchun pristavdan tashqari 37 mirshab va 120 ta qorovul yollangan bo'lsa, mahalliy aholi qismi uchun, bitta pristavdan tashqari 65 ta mirshab va aholi daromadiga binoan - 165 ta qorovul yollangan<sup>36</sup>.

Hatto polisiya xizmati uchun xarajatlar ham oshirilgan. Quyida shahar polisiyasi uchun 1908 yilda sarflangan xarajatlar miqdori ko'rsatilgan:

<b>Shahar xarajatlarning 1908 iildagi umumiy summasi</b>	<b>Polisiyaga ketadigan shahar xarajati miqdori</b>	<b>Shahar xarajatlaridan polisiya uchun ketadigan umumiy foiz</b>
557.052 m	38.778 m	6,9%

**4-jadval.**

Polismeystr lavozimi uchun davlat xazinasidan uning safarlari bilan birgalikda 1800 rubl maosh tayinlangan<sup>37</sup>. Shuningdek, polisiya boshqaruvidagi shtatlar ham razryadlarga bo'lingan edi.

Uyezd polisiyasiga ham «jamoat o'z-o'zini boshqaruvi»dan saylangan shaxslar tayinlanib, ular polisiya talablarini so'zsiz bajaribgina qolmay, o'zlari ham tartib saqlash bo'yicha mustaqil ravishda birlamchi choralar ko'rishlari lozim bo'lgan. U yoki bu jazoni belgilashda mustamlaka ma'muriyati amaldorlari juda ko'p hollarda huquq doirasidan chetga chiqardilar. Jazoga tortish imkoniyati juda keng talqin qilinardi: «gapga kirmaganligi uchun», «qo'pollik qilgani uchun», «hurmatsizlik qilganligi uchun», «buyruqni bajarmagani uchun» va hokazolar.

Polisiya amaldorlari va vakolatlariga ega ma'murlar o'z ixtiyorlariga ko'ra, o'z foyda va manfaatlaridan kelib chiqib, har qanday jazolashni qo'llay olardilar. Ya'ni, ular dastlabki tergovni amalga oshirardilar. Bunga binoan, sudlanuvchining o'z iqrori rasmiy dalil hisoblanib, qolgan barcha dalillar ko'makchi xususiyatga ega edi. Polisiya amaldorlari ularning iqrorini «sugurib olish uchun» hyech narsadan tap tortmasdi. Dastlabki, tergov jarayonidagi qiynoq va kaltaklashlarga chidayolmay, hatto, aybsizlar ham qo'yilgan ayblarga iqror bo'lardi.

<sup>35</sup> Polojenie ob upravlenie Turkestanskogo kraya. T.1916, 46-47.

<sup>36</sup> Politsiya bezopasnosti. Otchyot po revizii Turkestanskogo kraya proizvedennoy po grafom K.K.Palenom. SPB.1910, 29-30.

<sup>37</sup> Politsiya bezopasnosti. Otchyot po revizii Turkestanskogo kraya proizvedennoy grafom K.K.Palenom, SPB,1910, 196-207.



Bu davr arxiv hujjatlarida polisiya amaldorlarining o'z mansablarini suiste'mol qilib, o'z manfaatlari yo'lida aholini nohaq jazolaganliklari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Misol uchun, quyi mansabdagi Yakov Tolmachev kunduz kuni ko'chada savdo xaltasini ko'tarib yurgan oddiy fuqaroni to'xtatadi va undan savdogarlik guvohnomasini so'rab, uni tintib ko'rishni buyuradi. Fuqaro yonidan zanjirli soat va 40 tiyin topilgach, bularni tortib oladi. O'zini, agar norozilik bildiradigan bo'lsa, qamab qo'yish sharti bilan qo'yib yuboradi<sup>38</sup>.

Chor ma'muriyati tomonidan tanlab qo'yilgan bunday kadrlar va ularning aholiga nisbatan amalga oshirgan zo'ravonliklari, faqat zo'ravonlikka asoslangan mustamlakachilik siyosati yuritilganidan dalolatdir.

Chor hukumati adliya boshqaruvidagi siyosatida ham organ va kadrlarni tashkil etishda mustamlakachilik mezonida ish yuritdi. 1867-1886 yillar mobaynida Samarqandda umumsaltanat rus sudlari va halq sudlari, ya'ni shariat asosida ish ko'ruvchi qozilar faoliyat ko'rsatdi.

Rus sudlariga tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyat boshqarmalari, mirovoy sudyalari kurultoylari, harbiy sud komissiyalari kirgan. Tuman sudyalari mulkdan mahrum etishga daxldor bo'lmagan jinoiy ishlar, davlat xazinasi manfaatlariga oid bo'lmagan 2000 so'mgacha miqdorda bo'lgan da'volarni ko'rgan. Viloyatlar boshqarmalari esa tuman sudlari hukmlaridan shikoyatlar, qayta ko'rish kabi masalalarni hal qilgan. Davlat vazifalarini bajarishdagi jinoyatlar, hokimiyatga qarshilik ko'rsatish, qaroqchilik, davlat mulkini o'g'irlash, soxta pul yasovchilarning ishlari kabi tuman sudlari vakolatlariga kirmagan ishlarni ham ko'rishgan<sup>39</sup>.

1886 yilda tasdiqlangan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom» mavjud sud tartibini saqlab qolgan holda, unga ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Uyezd sudlari bekor qilinib, ularning o'rniga mirovoy (murosa) sudlari joriy etildi. Shuningdek, viloyat sudlari tashkil qilinib, ularga mirovoy sudyalari vazifalari yuklandi. Viloyat sudi avvalgi viloyat ixtiyorida bo'lgan vakolatlarni oldi va murosa sudlari hal etuvchi masalalarni ko'rish huquqiga ham ega bo'ldi. Ularning qoshida sud tergovchisi, viloyat prokurori va uning o'rindoshi kabi lavozimlar joriy qilindi<sup>40</sup>. «Nizom» to'liq ravishda sudning hokimiyatdan mustaqil bo'lishini qonunlashtirgan bo'lsa ham, amalda u butun bir hokimiyatni o'z qo'llarida tutgan harbiy ma'muriyatning kuchli ta'sirida qolaverdi.

Imperiya sudlarida rus hokimiyatiga bevosita va bilvosita qarshi faoliyat olib borgan mahalliy aholi vakillari ishlari ko'rilgan. Ruslarga qarshi jinoyat qilgan o'zbeklar yoki ruslar bilan birga noqonuniy ishga ko'l urgan o'zbeklarni shu sudlar jazolagan. Rus qishlog'i, shahar

---

<sup>38</sup> O'z R MDA. Fond-I 18, ro'yxat-1, yig'ma jild-980, varaqlar, 8,9.

<sup>39</sup> Polojenie ob upravleniye Turkestanskogo kraya. -T., 1903, 60-65.

<sup>40</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. 1-qism. Turkiston chor mustamlakachiligi davrida, T.: Sharq, 2000, 208 - bet.

qismi va umuman ruslar istiqomat qilib turgan yerlarda jinoyat qilgan o'zbeklar imperiya sudida javobgarlikka tortilgan. Turli millatlarga mansub kishilarning jinoyatlari ham rus sudida ko'rilgan.

Barcha mahalliy aholi Rossiya imperiyasining umumiy qonunlariga bo'ysundirilgan. Ular quyida ko'rsatilgan jinoyatlar asosida javobgarlikka tortilgan:

1) Xristianlik e'tiqodiga qarshi; 2) davlatga qarshi; 3) boshqaruv tartibiga qarshi; 4) davlat va jamoat xizmatiga qarshi; 5) davlat va umumxalq qaroridagi majburiyatlarga qarshi; 6) mol mulk va g'azna daromadiga; 7) jamoat obodonchiligiga: a) karantin ustavini buzganlikda va b) yoppasiga va yukumli kasalliklarga qarshi qarorni buzganlikda va v) hayvonlardagi yukumli va boshqa kasalliklarni, xom go'sht mahsulotlarini zararsizlantirish haqidagi ogohlantirish bo'yicha veterinar-polisiya choralari buzish; 8) jamoat tinchligi va tartibiga qarshi: a) yovuz niyatli guruhlar va boshpanalar tuzganlikda; b) yolg'on ma'lumot, imperiya ishlarida va qonun bo'yicha sud qilinganda yolg'on guvohlik; g) telegraf va yo'llarni buzish; 9) qonun holatlariga qarshi; 10) hayot, sog'lig'i, erkinlik va or-nomusga qarshi: a) o'ldirish; b) birovga shikast yetkazganlik natijasidagi o'lim; v) zo'rlash; g) noqonuniy tutib turmoq va qamash; 11) mulkka qarshi: a) birovning ko'chmas mulkiga zo'rlik bilan ega chiqish chegara orasi va belgilarni yo'q qilish; b) birovning mulkini yondirish va yo'q qilish; v) mulkni talash va o'g'irlash; g) g'azna mulkini o'g'irlash va rus hujjatlarini qalbakilashtirish,<sup>41</sup> kabilar shular jumlasidandir.

Yuqorida ko'rsatilgan imperiya qonunlarini buzgan mahalliy aholidan tashqari, ya'ni rus va turli millatga mansub barcha tub aholi, balki ularning alohida sudlari bo'lsa ham, umumiy asosda sud qaroriga bo'ysungan. Shuningdek, tub aholining rus yoki qozixonada sudlanishi 1886 yilgi Nizomga ko'ra quyidagicha belgilangan:

1. Ayblanuvchining u yoki bu millat- elatga mansubligiga qarab. 2. Sodir etilgan jinoyat turiga ko'ra.

Z. Jinoyat sodir etilgan hududga ko'ra.

4. Jinoyat kimga qarshi qaratilganiga ko'ra.

Xuddi ana shu belgilarga ko'ra jazo belgilangan va jinoyat rasman shariat yoki Rossiya imperiyasi jinoiy qonunlariga ko'ra tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

Samarqand aholisi turmushida rus sudlari emas, balki mahalliy shariat sudlari salmoqli o'rin tutgan. Shu boisdan, chor hukumati sudi «xalq sudlari» deb atalgan, mahalliy o'troq aholi uchun qozi sudlari va ko'chmanchilar uchun biy sudlari qoldirilgan.

Mahalliy sudlar bo'lgan «xalq sudyalari» shariat qonunlari asosida mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining fuqarolik va jinoiy ishlarini ko'rishgan. Lekin davlat ahamiyatiga ega

---

<sup>41</sup> Polojenie ob upravleniye Turkestanskogo kraya. -T.1916, 78-79; Spravochnayaknijka Samarkandskoy oblasti na 1894 g. II. Samarkand, 18-19.

siyosiy ishlar ularning vakolat doirasiga kirmagan. Xalq sudyalarini saylash ham (volost boshqaruvchisini saylash singari) belgilangan tartibda o'tkazilgan<sup>42</sup>.

Xalq sudlarida ko'riluvchi ishlar doirasi juda keng bo'lib, aholining salkam 90% i qozilik va biylik sudlariga murojaat qilgan. Lekin ba'zida qozilik sudlariga murojaat qilgan fuqarolar ular chiqargan hukmdan qoniqmay, o'z ishlarini okrug sudlariga oshirgan holatlar ham bo'lgan<sup>43</sup>.

Ta'kidlash joizki, bu apparatning amalda saylab qo'yilishi va cheklangan tarzdagi o'zini-o'zi boshqarishi ko'p jihatdan soxta edi, chunki ular o'zining barcha xatti-harakatlari to'g'risida chor ma'murlariga qat'iy hisob bergan. Saylov asosida va xalq sudyalari lavozimiga nomzodlarning bilim darajasi borasida ma'lum bir talabning mavjud emasligi saylovlar atrofida olishuv va ixtiloflarga keng yo'l ochdi. Agar amirlik davrida qozilik lavozimiga ko'plab nomzodlar orasidan eng loyiqqlari tanlangan, ulardan shariat qonunlari va odatlari bo'yicha imtihon olingan, nomzodning qobilligi fuqarolar tomonidan tan olingan bo'lsa, yangi davr saylov tizimi bu talablarni susaytirdi. Chunki endi mustamlaka ma'muriyati nomzodni tanlab, saylov natijalarini tasdikdan o'tkazgan. Ular har qanday saylovni bekor qilishi, o'zlariga ma'qul kelmaydigan qozilar, biylar va shu kabilar o'z ixtiyori bilan almashtirish huquqidan keng foydalangan.

Hukumat doiralarining bunday siyosati natijasida aksar hollarda xalq sudyaligiga shariat qonunlari u yoqda tursin, hatto oddiy huquqni yaxshi bilmaydigan odamlar saylanar, buning oqibatida mansabni suiste'mol qilish va qonunni buzish hollari kelib chiqardi<sup>44</sup>. Ayniqsa, jinoyat turlari bo'yicha ham jazo choralari aniq chegarasi mavjud emasligi sudyalarga u yoki bu aybdor uchun jazo chorasini tanlashda keng imkoniyat bergan.

Chorizm o'z ijtimoiy tayanchini kengaytirish va joylarda o'ziga xos «kadrlar manbasi»ni yaratish maqsadida tashkil etilgan bu institutlarning vakolatlarini kengaytirib bordi. Chor ma'muriyati mahalliy aholi vakillarini o'z boshqaruv siyosatlariga aralashtirishni xohlamagan. Shu boisdan ularga go'yoki quyi mahalliy boshqaruvni bergan hisoblanib, ammo asosiy tizgin chor ma'murlari qo'lida bo'lgan<sup>45</sup>.

Mahalliy amaldorlarning o'z lavozimiga to'g'ri kelishi yoki to'g'ri kelmasligi masalasini hal qilishda chor ma'murlari ularning bilim darajalarini emas, balki siyosat, g'oyaviy jihatdan ishonchligini, ya'ni chor hukumatiga moyilligini, qarshi emasligini, xristianlarga, ularning diniy e'tiqodiga munosabati kabi xislatlarni inobatga olgan. Umuman, chor ma'murlariga bilimli, mustaqil fikrlaydigan, o'ziga ishongan shaxslar emas, bilimi doirasi tor, mustaqil ishlay olmaydigan, chor ma'murlari aytganini bajaradigan kishilar kerak edi.

---

<sup>42</sup> O'z R MDA fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild-1800, varaqlar 2 va uning orqasi.

<sup>43</sup> O'z R MDA fond-I18, ro'yxat 1, yig'ma jild- 955, varaqlar, 10, 11.

<sup>44</sup> O'z R MDA fond-I20, ro'yxat-1, ish-1269, varaqlar, 1,3.

<sup>45</sup> O'z R MDA fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild 993, varak, 22.

Shuningdek, mahalliy kadrlar shaxsiy tarkibi ko'char va ko'chmas mulk egalari, katta zamindorlar, tub aholining chor tartibiga sodiq bo'lgan qismidan olingan.

Shuningdek, amirlik davrida otadan farzandga meros bo'lib o'tadigan mansablar (qozi, mutavalli) holati ham chorizm davrida deyarli saqlandi<sup>46</sup>. Chunki chorizm manfaatlariga xizmat qiladigan oilalar ularga ayni muddao bo'lgan. Ikkinchi tomondan, qoziga ulamo va boshqalarning bo'ysunishi chor hukumatini qanoatlantirgan.

Umuman chorizm mustahkam boshqaruv siyosatini o'rnatishda kadrlar masalasiga haMarkaziy Davlat Arxivi,, ularni tanlashga alohida e'tibor qaratgan. Bu borada hatto bir qancha chora-tadbirlar ham ishlab chiqilgan. Shulardan masalan, xalq sudlari va volost mudirlari zimmasiga «besh yil muddat o'tgandan keyin butun xizmat yozishmalarini rus tilida olib borish, o'n besh yil o'tgandan keyin esa bu lavozimlarga rus tilini yaxshi egallagan shaxslarnigina tayinlash»<sup>47</sup> vazifalarini qo'yish shular jumlasidan edi. Shuningdek, mahalliy kadrlarni tanlashda chorizm ularni turli sohalarda (xususan, qishloq xo'jaligi sohasida) yaxshi mutaxassis bo'lishini va bu yo'lda chorizmni qo'llab-quvvatlab faoliyat yuritishi maqsadida, ularni turli xil bilim yurtlariga o'qishga kirishga ham undab bordi. Jumladan, shunday undashlardan biri-mahalliy aholining «rus-tuzem» maktablarini va shahar bilim yurtlarini tamomlab kelgan bolalariga faxriy fuqarolik yoki qishloq, ovul oqsoqollari lavozimlarini egallash; muayyan xizmatda sinov muddatini o'tagandan keyin, esa volost mudirlari va katta oqsoqollar lavozimlarini egallash huquqlarini berish» kabi muhim imtiyozlar orqali ularni bu sohalarni egallashga jalb etgan<sup>48</sup>.

---

<sup>46</sup> O'z R MDA fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild -5751, varaq, 5,6.

<sup>47</sup> Tarix shohidligi va saboqlari. -T., Sharq, 2001, 30 6.

<sup>48</sup> Shu asar, 31-b.

### Xulosa va Tavsiyalar

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi Samarqandda tashkil etgan siyosiy boshqaruvdagi yangi tashkilot va kadrlar tizimi imperiyacha asosda boshqarilib, uni yanada mustahkamlash uchun faoliyat olib borishga yo'naltirgan edi. Bu siyosiy niyatni amalga oshirishga bosh bo'lgan rahbarlar boshqaruv apparatining shaxsiy tarkibini tashkil etgan. Mustamlaka hokimiyati tizimida yetakchilik mavqeyi harbiy va harbiy bo'lmagan amaldorlarga tegishli edi.

Ayniqsa, manbalarga ko'ra, viloyatda ma'muriy, sud va polisiya lavozimlarida faoliyat yuritgan aholining 51% dan ortig'i rus millatiga mansub kishilar bo'lib, ular mustamlaka apparatining asl o'zagini tashkil etgan<sup>49</sup>.

Boshqaruv apparatidagi rus amaldorlarining chuqur tomir otishi va Turkistonni tark etmasligi uchun chor hukumati tomonidan qulay shart-sharoitlar yaratib berildi. Hukumat farmoyishiga ko'ra, barcha rus amaldorlariga xizmatning birinchi besh yili uchun asosiy maoshning 20% ini, ikkinchisi uchun 40% ini, uchinchisi uchun 75% tashkil etuvchi qo'shilib boruvchi maosh ham tayinlangan edi<sup>50</sup>.

Shu o'rinda yana aytish lozimki, chor hukumati o'lkada o'z boshqaruvini mustahkamlash borasida mustamlaka tizimidagi rus amaldorlariga ham bir qancha talablar qo'ygan. Bu borada, Samarqand viloyati harbiy gubernatorining qarori ham fikrimizni tasdiqlaydi. Qarorda, ma'muriy polisiya boshqaruvidagi amaldorlar mahalliy tilni bilishi zarurligi to'g'risida uqtiriladi. Jumladan, mahalliy tilni biladiganlar soni kamayib ketganligi va mahalliy tilni bilishga ham intilish zarurligi, chunki bu mahalliy aholi o'rtasida chor hukumati manfaatlarini qaror toptirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi<sup>51</sup>. Darhaqiqat, bundan chor hukumatining asosiy ko'zlagan maqsadi, mahalliy aholi kayfiyatidan xabardor bo'lish, ularning mustamlaka siyosatiga munosabati, aholi o'rtasida chor imperiyasi siyosatini tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borish kabilardan iborat edi.

Shunday qilib, ushbu bob bo'yicha quyidagi xulosalarga keldik:

1.Samarqand viloyati chor Rossiyasi tarkibiga kiritilgach, viloyatda umumimperiya ruscha idora shaklidagi yangi boshqaruv tizimi o'rnatildi.

2.Mustamlakachilik boshqaruv siyosatining amalga oshirilib borilishi natijasida aholi o'rtasida ijtimoiy tabaqalanish jarayoni kuchaydi. Bu avvalo boshqaruv tizimining takomillashtirilishi, Rossiyaning markaziy guberniya va boshqa hududlaridan aholining

---

<sup>49</sup> Pervaya Vseobshaya perepis' naseleniya Rossiyskoy imperii, 1897. Samarkandskaya aoblast'. 1905, 98-101.

<sup>50</sup> Abduraximova N., Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. -T.: Akademiya, 2002, 206 b.

<sup>51</sup> O'z R MDA, fond-I 18, ro'yxati-1, ish-2142, varaq, 5.

ko'chirib keltirilishi tufayli viloyat aholisining ijtimoiy tarkibi doirasi kengaydi va aholi sonining o'sishiga olib keldi.

3. Viloyat boshqaruvi viloyat, uyezd (tuman), volost, uchastka (jabha), shahar va qishloq boshqaruvi shaklida tashkil topdi.

4. Mahalliy boshqaruv tizimi (viloyat va uning uyezd, shaharlari) kadrlari asosan chor amaldorlaridan tashkil topgan bo'lib, ular o'zlariga berilgan huquq va imtiyozlardan keng foydalanganlar. Boshqaruvning quyi bo'g'iniga mahalliy aholi vakillari biritilgan, lekin ularning faoliyati asosan chor ma'muriyati izmida bo'lgan.

5. Boshqaruvdagi tashkilotlarining yuqori bo'g'inidan tortib quyi bo'g'iniga qadar, faoliyat olib borgan amaldorlar orasida mansabni suiste'mol qilish, ta'magirlik, poraxo'rlik, zo'ravonlik kabi holatlar keng tus olgan bo'lib, bu chor imperiyasining Samarqandda mustamlakachilik manfaatlarini yurgizishi uchun keng imkoniyat yaratdi.

## Manbalar

- ABAZA K.K., *Zavoevanie Turkestana*, SPb., 1902.
- ABDURAXIMOVA N., Ergashev F. *Turkistonda chor Mustamlaka Tizimi*, T., 2002.
- KAUFMAN K.P., *Proekt Vsepoddanneyshego Otcheta*, SPb, 1885, 165.
- LOGOFET D.N. *Buxarskoe Xanstvo pod Russkim Protektoratom*. T.1, SPb, 1901.
- Massal'skiy V.I. *Turkestanskiy kray*. –SPb, 1913.
- Materiali dlya statistiki Turkestanskogo kraya. Vip IV.SPb.,1876.
- Traktat Axmada Donisha. Istoriya mangitskoy dinastii*, Dushanbe, 1967.
- PALEN K.K. *Uezdnoe upravlenie*. –SPb, 1910.
- Pervaya Vseobshaya perepis' naseleniya Rossiyskoy imperii, 1897*. Samarkandskaya oblast'. 1905 g.
- Polojenie ob upravlenie Turkestanskogo kraya*. sos-l. I.Y. A.Abramov, T.1916.
- Politsiya bezopasnosti. Otchyot po revizii Turkestanskogo kraya proizvedennoy grafom K.K.Palenom*. -SPB,1910.
- Polojenie ob upravleniya Turkestanskogo kraya*, T., 1903.
- Proekt vsepoddanneyshego otcheta general-ad'yutanta K.P.Kaufmana po grajdanskomu upravleniyu i ustroystvu v oblastiakh Turkestanskogo general-gubernatorstva*. 7 noyabrya, 1867, 25 marta 1881 gg. Spb. 1885.
- Selskoe upravleniya: russkoe i tuzemnoe*. Otchet po revizii graf.K.K. Palenom.-SPb, 1910.
- Rasskazi o vzyatii Semerkanda ( so slov uchastnikov dela) // Turkestanskiy literaturniy sbornik*. SPb, 1900.
- Statisticheskie svedeniya po gorodam i uezdnam Semerkandskoy oblasti za 1897 g. M.Virskogo*. - Semerkand. Tip-ya: K.M.Fedorova. (1899): 4-10.
- Tarix shohidligi va saboqlari*. -T.: Sharq, 2001.
- TERENTYEV M.A., *Istoriya zavoevaniya Sredney Azii*. -SPb., 1906. T.1.
- ZIYOEV H., *Turkistonda Rossiya tajovuzi va xukmronligiga karshi kurash*. –T.: Sharq, 1998.
- G'AFFOROV S.H.S., *Chorizm davrida Semerkand viloyatida mustamlaka siyosiy-ma'muriy tizimining yuzaga kelishi*//«Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni». Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro-ilmiy simpozium materiallari. -Toshkent-Samarqand: Fan, 2007, 381 bet.
- O'zbekistonning Yangi Tarixi, 1-qism, Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida, T.: Sharq, 2000.

### **Arxiv Manbaları**

O'zR Markaziy Davlat Arxivı, fond-715, ro'yxat-1, ish-36, varaklar-307-308., 29, 265-268 betlar.

O'zR markaziy davlat arxivı, fond-I 18, ro'yxat-1, yig'ma jild-281, varaklar, 1,2.

O'zR Markaziy Davlat Arxivı, fond-I 715, ro'yxat-1, 36-ish, varaklar, 342,343.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond- I5, ro'yxat-1, ish-1, varaq, 1.

O'zR Markaziy Davlat Arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, varaq, 1.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond I5, ro'yxat-1, varaklar, 37,38.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I5, ro'yxat-1, yig'ma jild-213, varaqlar, 8,9.

O'zR Markaziy Davlat Arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, varaqlar, 1,2.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, ish 646, varaq, 5.

O'zR Markaziy Davlat Arxivi, Fond-I18, ro'yxat-1, ish 14516 a, varaqlar, 1-16.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond I-18, ro'yxat-1, yig'ma jild-1121, varaqlar, 2, 3 orqasi.

Polojenie ob upravlenie Turkestanskogo kraya. sos-l. I.YA.Abramov. T.1916, 27-28.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond - I18, ro'yxat-1, ish-453, varaqla, 1,4,6.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I1, ro'yxat-27, ish-659, varaklar, 22,49.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I 5, ro'yxat-1, yig'ma jild-1, varaq, 38.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I5, ro'yxat-1, yig'ma jild-208, varaqlar, 3.

O'z R Markaziy davlat arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild-1800, varaklar 2 va uning orqasi.

O'z R Markaziy davlat arxivi, fond-I18, yig'ma jild-25-28, varaklar, 9,10.

O'z R Markaziy davlat arxivi, Fond-I 18, ro'yxat-1, yig'ma jild-980, varaqlar, 8,9.

O'z R Markaziy davlat arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild-1800, varaklar 2 va uning orqasi.

O'z R Markaziy davlat arxivi, fond-I18, ro'yxat 1, yig'ma jild- 955, varaqlar, 10,11.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I20, ro'yxat-1, ish-1269, varaqlar, 1,3.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild 993, varak, 22.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I18, ro'yxat-1, yig'ma jild -5751, varaq, 5,6.

O'z R Markaziy Davlat Arxivi, fond-I 18, ro'yxat-1, ish-2142, varaq, 5.